

## IMPLIKATURA VA KOMMUNIKATIV STRATEGIYA ALOQASI

*O'tanova Shaxnozaxon Maxmudovna*  
*Andijon davlat chet tillari instituti*

**Annotatsiya:** Implikatura tilshunoslikda ham, pragmatikada ham soʻzlovchi soʻzi orqali bildiriladigan bilvosita maʼnoni ifodalash uchun qoʻllaniladigan tushunchadir. Biroq, bu sohalarda implikatsiyalarni tushunish va tahlil qilish usullari boshqacha boʻlishi mumkin.

**Kalit soʻzlar:** implikatura, kommunikativ strategiya, semantika, tushuncha.

**Abstract:** Implicature is a concept used in both linguistics and pragmatics to express the indirect meaning conveyed by the speaker's word. However, the ways in which implications are understood and analyzed in these areas may differ.

**Keywords:** implicature, communicative strategy, semantics, concept.

**Аннотация:** Импликатура – понятие, используемое как в лингвистике, так и в прагматике для выражения косвенного смысла, передаваемого словом говорящего. Однако способы понимания и анализа последствий в этих областях могут различаться.

**Ключевые слова:** импликатура, коммуникативная стратегия, семантика, концепт.

Tilda va nutqda ifodalanadigan implitsitlik muammosi bugungi kunda tilshunos va ruhshunoslarni, mantiqchi va faylasuf olimlarni oʻzining murakkab semantik tarkibi, tilda turli vositalar orqali ifodalanishi bilan qiziqtirib kelayotgan murakkab masalalardan biridir. Masalaning nazariy asoslari I. Arnold (1982, 1991), S. Askoldov (1997), A. Bondarko (1978, 1984), E. Kubryakova (1981, 1991, 1996, 2002), A. Maslennikova (1999), Yu.M. Skrebnev (1975, 1985, 1990), Yu. Stepanov (1971, 1997, 2002) va boshqa olimlarning tadqiqotlarida oʻrganilgan. Muammoni oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar soni juda koʻp boʻlsa-da, implikatsiya, uning fikrning formal strukturalarida qanday namoyon boʻlishi, bir tilda ifodalanagan implitsitlik turlari va ularning boshqa tillarga tarjima jarayonida qayta tiklanishi masalalarida olimlarning biror bir umumiy fikrga kelmaganligi kuzatilmoqda. Bu holat, tadqiqotchilar oʻrtasida mavzu boʻyicha turli nazariyalar, yondashuvlar va fikrlarning mavjudligini koʻrsatadi, bu esa implikatsiya va uning tildagi koʻrinishlarini yanada chuqurroq oʻrganishga ehtiyoj tugʻdirmoqda. Natijada, tilshunoslik sohasida implikatsiyaning murakkab tabiati va koʻp jihatdan noaniqligini yanada yaxshiroq anglash imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Bu jarayon, til va uning ijtimoiy kontekstdagi roli boʻyicha yangi fikrlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tilshunoslikda uzoq

paytlargacha implitsitlik tushunchasi bir ma'noda qo'llaniladigan fikrning nazarda tutilgan ma'nosi, so'z birikmasi komponentlari orasida mazmuniy bog'liqlikning mavjud emasligi yoki so'zning, vaziyat belgilarining doimiy komponentlar orqali ifodalanmasligi kabi talqinlarda berilgan.

Implikatura tilshunoslikda ham, pragmatikada ham so'zlovchi so'zi orqali bildiriladigan bilvosita ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushunchadir. Biroq, bu sohalarda implikatsiyalarni tushunish va tahlil qilish usullari boshqacha bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda implikatura to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, lekin kontekst orqali nazarda tutilgan gapdan kelib chiqqan ma'noni bildiradi.<sup>1</sup> Bu ma'no bayonotda qo'llanilgan so'zlar yoki so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi madaniy bilimlar o'rtasidagi mantiqiy munosabatga asoslangan bo'lishi mumkin. Ushbu tushuncha kognitiv tilshunoslikda subfreymlar yoki freymarning terminallari, lingvistik semantikada esa ma'noning implikatsionalligi sifatida o'rganiladi.

N. Paninining asosli fikricha, implitsit ifodalanadigan fikr tushunchasi lisoniy birlikning nutq jarayonida qo'shimcha, nazarda tutilgan ma'noda qo'llanilish imkoniyati va undan bu qo'shimcha axborotni ilg'ab olish jarayonini ifodalaydi. Masalan:

*“Сегодня утром с Сашей Мальцевым шайбу побросали”*. Precedent nom bilan kelayotgan bu jumladagi implitsit axborot, ya'ni qo'shimcha ma'no *“Я знаком с известным хоккеистом”* hisoblanadi.

*If someone says “I have two children”* Buning ma'nosi shundaki, ularning ko'p yoki kamroq emas, balki ikkita farzandi bor.

*If someone says “Do you have the time?”* Bu gap esa, kishining soati bor-yo'qligini emas, balki hozirgi vaqtni so'ramoqda. Lisoniy birlikning tashqi shakli bilan ifodalanmagan, ammo bir til doirasida kechadigan verbal muloqot jarayonida anglashiladigan bunday yashirin ma'no axborot ko'plab tadqiqotlarda implikatura atamasi bilan ham yuritilib kelinmoqda<sup>2</sup> va bu tushunchalarning qo'llanishi borasida aniqlik kiritish zarurati paydo bo'lmoqda.

I. Arnoldning ta'kidlashicha, “implikatsiya, bu – mikrokontekstda yoki muloqot vaziyatida vujudga keladigan va til birligi orqali bilvosita ifodalanmaydigan qo'shimcha ma'nodir. Implikatura esa, ushbu jarayonning nomidir”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Muhsinovna R. M., Aminovich U. A. (2022). The implementation of corpus-based techniques to analyze literary works. Open Access Repository, 8(04), - 88-91 p.

<sup>2</sup> Панина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. – 368 с.

<sup>3</sup> Долинин К.А. ИмPLICITное содержание высказывания // Вопросы языкознания. 1983. – № 6. –37–47 с.

Ayni paytda, turli tadqiqotlarda implikasiya tushunchasi orqali ko‘plab yangi atamalar va ta’riflar ham vujudga kelayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, E. Starikova implitsit predikatsiya atamasini qo‘llab, uni nazarda tutilgan yashirin ma’no, shuningdek, mantiqiy bog‘liqliklari tushirib qoldirilgan fikr, vaziyatga bog‘liq ravishda bilvosita ifodalangan qo‘shimcha axborot belgilari, deb ta’riflaydi. V. Kuxarenko “implikasiya” tushunchasini, matn birliklari o‘rtasidagi bilvosita bog‘liqliklar natijasida paydo bo‘ladigan qo‘shimcha ma’no yoki emotsional mazmun sifatida aniqlaydi. U, shuningdek, bu qo‘shimcha mazmunning matnning tag ma’nosi (podtekst) va alohida so‘zlar orqali ifodalanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bunday qo‘shimcha ma’no, umumiy kontekst yoki bitta gap orqali, shuningdek, asarning butun syujetiga asoslanib ham ifodalanishi mumkin. Yashirin tarzda ifodalangan qo‘shimcha ma’no asosan muallifning badiiy mahorati va matnning rasmiylashtirish usullari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda artikllar, so‘z tartibi, mantiqiy bayon qoidalaridan og‘ishish va so‘zlarning stilistik maqsadlarda qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu omillar, natijada, asarning chuqur ma’nosini anglashga yordam beruvchi kontekstual qatlamni shakllantiradi.<sup>4</sup>

Bu o‘rinda mashhur fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan o‘z asarini “Hayot” deb nomlashida qanchalik implitsit axborot jamlanganini tasavvur qilish mumkin.

K. Dolinin esa bunday qo‘shimcha ma’noni umumiy ma’no anglatuvchi fikrning implitsit mazmuni atamasi bilan yuritishni taklif qiladi. Fikrning implitsit mazmuni deyilganida, u birinchi navbatda lisoniy birlikning asosiy ma’nosi orqali ifodalanmagan, ammo nutq jarayonida anglanadigan mazmunni nazarda tutadi<sup>5</sup>.

G. Pochepsovning fikricha, muloqot jarayonida voqelanadigan “nazarda tutilgan fikr” ning lisoniy mazmuni boshqa ma’nodagi axborotga (bizning tushunchamizdagi implikaturaga) aylanadi. “Bunday axborot lisoniy birlikning xususiy mazmuniga emas, undan anglashiladigan, talaffuz qilinmaydigan qo‘shimcha ma’noni ifodalaydi”<sup>6</sup>.

Ayrim mualliflar implikasiya deyilganda, lisoniy birlik mazmunini va eksplikatsiya orqali nazarda tutiladigan axborotni anglashni ham tushunadilar va nutq jarayonida ma’nosi implikasiya qilinadigan lisoniy vositalar sirasiga nutq birliklarini, stilistik vositalarni ham kiritadilar. Natijada implikasiya atamasining “*implikat*”, “*implikatsional*”, “*implikatsionlik*” singari yasama atamalari ham vujudga kelgan. So‘zning tashqi shakli bilan ifodalanmaydigan, ammo uning ichki mazmunidagi

<sup>4</sup> Кухаренко В.А. Типы и средства выражения импликации в английской художественной речи (на материале прозы Э.Хемингуэя) // НДВШ. Филол. науки. 1974. – №1. –69–74 с.

<sup>5</sup> Долинин К.А. ИмPLICITное содержание высказывания // Вопросы языкознания. 1983. – № 6. –37–47 с.

<sup>6</sup> Почепсов О.Г. Основы прагматического описания предложения.-Киев: Виша школа, 1986. – 75 с.

kognitiv axborot fondagi bilimlar orqali idrok qilinadigan bunday lisoniy birliklar tilshunoslikda haligacha ko‘plab atamalar bilan yuritilib kelinmoqda. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladiganlari orasida “implikatsiya”, “implitsit mazmun”, “implitsit ma’no”, “implitsit axborot” tushunchalari ham bor. Lisoniy ongda shakllanadigan bunday birliklar ko‘pincha semantik jihatdan murakkab strukturalar bilan ifodalanadi. Ular, jumladan, nutqdan oldin bildirilgan fikrlar, qo‘shimcha ma’lumotlar, nutq jarayonida anglashiladigan qo‘shimcha ma’nolar, semantik kompressiya va ellipsis, yashirin fikrlar, ikkilamchi ma’nolar, kontekstni kengaytiruvchi va parafrazani talab qiluvchi birliklar, shuningdek, ma’noviy topishmoqlar bilan bog‘liq atamalar yordamida tushuntiriladi<sup>7</sup>. Bu kontekstdagi implikatsiyaning metonimiya, metafora, sinekdoxa kabi stilistik vositalar, realiya, konnotativ va kognitiv ma’no, pragmatik ma’no hamda pretsedent nomlar kabi tushunchalar bilan o‘zaro aloqasi, shuningdek, ularni tarjima jarayonida qayta yaratish, alohida tadqiqot obyekti sifatida e’tiborga olish mumkin. Misol uchun, semantik kompressiya yoki semantik ellipsning implitsitlikni namoyon etuvchi misollariga e’tibor qaratish muhimdir. Bu jarayonlar tilshunoslikda nutqdagi ma’noni aniqroq va chuqurroq tushunishga yordam berishi bilan birga, kommunikativ vaziyatlardagi tilning foydalanishidagi noaniqliklarni tahlil qilishga imkon yaratadi.

– Bugun “Venetsiya”ga borib, bir mazza qilib tushlik qilib kelsak, nima deysan?

– Birgina tushlik qilib kelish uchun Venetsiyaga borish shartmi?

Bu yerda birinchi suhbatdosh o‘z gapida “Venetsiya” restoranini nazarda tutmoqda. Ikkinchi suhbatdosh esa semantik kompressiya qilingan ellipsli implikatsiyani tushunmasdan, Venetsiya mamlakatini nazarda tutmoqda. Demak, implikatsiyani tushunishda kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning fondagi, kognitiv bilimlari hamda pragmatik axborot ishtirok etadi. Yana bir misol:

– Anavi qiz juda ketvorgan ekanmi? – ha, uning eri ham shu fikrda.

Birinchi suhbatdosh gapida qizning jamoliga maftunlik, u bilan tanishish ishtiyoqi pragmatik implikatsiya qilinmoqda va fikr so‘roq formada ifodalanib suhbatdoshning bu fikrga qo‘shilish-qo‘shilmasligini bilish istagi ifodalanmoqda. Ikkinchi suhbatdoshning javob replikasida esa uning fikri to‘g‘ri ekanligi, ammo uning ishtiyoqi befoyda ekanligi, ayolning eri uni juda sevishi tasdiq formada implikatsiya qilinmoqda. Misollardan implitsit axborot muloqot jarayonida tasdiq, so‘roq va inkor formalarda tag ma’no orqali ifodalanishi anglashildi.

V. Moroz, T. Silman, I.Torsuyeva, I.Galperin tadqiqotlarida implitsitlik tushunchasi tag ma’no/podtekst tushunchasi bilan mustahkam aloqada ekanligi

<sup>7</sup> Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания. 1983. – №4. –83–91 с.

ta'kidlangan. Masalan, kimdir bizdan "Soat necha bo'ldi?!" deya so'ramoqchi bo'lsa, u bunday savolni turli vaziyatda turli xil tag ma'no orqali turli ohangda ifodalashi mumkin. U savol bir paytning o'zida vaqt allamahol bo'lib qolganligi yoki oddiygina soatni necha bo'lganligini bilish istagi singari tag ma'nolarga ega. Demak, tag ma'no (podtekst) deyilganda, fikr matni orqali ifodalanmay, vaziyat orqali ifodalanadigan axborot mazmuni ham tushuniladi. Ko'p hollarda tag ma'no (podtekst) til me'yorlaridan chekinish, so'zni odatdan tashqari vaziyatlarda qo'llash, so'z shaklining u ifodalayotgan ma'noga mos kelmasligi, muallifning yoki asar personajining – gapiruvchi shaxsning pragmatik maqsadiga bog'liq holda hosil qilinadi. U bunday yashirin ma'noli so'zlarni qo'llar ekan, tinglovchiga (kitobxoniga) muayyan darajada pragmatik ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qilib qo'yadi. Binobarin, muallifning, gapiruvchining muayyan nutq vaziyatida tinglovchiga (kitobxoniga) muayyan darajada ta'sir o'tkazish maqsadida lisoniy vositalar orqali fikrni implitsit ifodalashi muallif usuli, badiiy mahorati sifatida ham o'rganilishi mumkin.

Shunday qilib, implikatura ya'ni, implitsit ifodalangan fikr deganda, umumiy ma'nodagi referent yoki vaziyatdan farqlanadigan referent mavjudligini, umumiy ma'nodagi propozitsiyaning mavjudligini va xulosaga kelish jarayonini, konkret kontekstual ma'nodan yoki uning lisoniy mazmunidan anglashiladigan ma'noni tushunamiz. Umumiy ma'no esa, bu ikki tarkibiy qismning natijasidir. Bu ikki komponentning jumladagi, umuman, fikrdagi umumiy ma'no bilan bog'liqliklariga ko'ra implikaturaning turlari aniqlanadi. Bu fikrga tayanib, umumkommunikativ va kontekstual implikaturani farqlaymiz. Ular, o'z navbatida, fikrni ifodalashda umumiy ma'no turiga ko'ra, predmetni ifodalovchi, mantiqiy va konvensional fikrlashni aks ettiruvchi kichik guruhlariga taqsimlanadi. Mantiqiy va konvensional implikaturalar, o'z navbatida, ramziy va etiketga doir obrazli implikaturalarga bo'linadi. Ularning mohiyatini anglash, matndagi implikaturani tarjima jarayonida o'g'irishda muhim rol o'ynaydi. Tildagi implitsitlik masalasi va uning badiiy matni anglashdagi ahamiyati hozirgi pragmatolingvistika va kognitiv tilshunoslikda faoliyat yuritayotgan olimlar uchun eng qiyin va qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadi. Muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan bo'lmagan va kitobxon yoki tinglovchining o'z-o'zidan anglashini talab qiladigan yashirin ma'nolar, badiiy asarning emotsional va pragmatik ta'sirini, shuningdek, muallifning badiiy mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, badiiy matni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Badiiy matnda implitsit ifodalangan fikr, uning ifodalanish turlari va vositalari bir asrdan beri nafaqat tilshunoslarni, balki adabiyotshunoslarni, faylasuflarni, ruhshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda. Bu borada ilgari surilgan g'oyalar, konsepsiyalar, yo'nalishlar shunchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan hanuzgacha implitsit axborotning mohiyati, uning tinglovchining (o'quvchining) reaksiyasiga bog'liqligi, implitsit

axborotni tushunish mexanizmi borasida xilma-xil bahslar davom etib kelayapti. Bu borada lingvistik, psixologik, psixolingvistik, kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan amalga oshirilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘ziyoq til va nutqdagi implitsitlik muammosi ko‘p aspektli va ko‘p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

Til va nutqda implitsitlik muammosi bugungi kunda tilshunoslarni, mantiq va faylasuf olimlarni qiziqtirib kelayotgan, o‘zining murakkab semantik tarkibi bilan, tilda turlicha vositalar bilan, ifodalanishi bilan eng qiziqarli va murakkab muammolardan biridir. Muammoning nazariy asoslari I.V. Arnold, S.A. Askoldov, A.V. Bondarko, E.S. Kubryakova, A.A.Maslennikova, Yu.M. Skrebnev, Yu.S. Stepanov va boshqa ko‘plab boshqa olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

Lisoniy vositalar orqali ifodalangan axborotning muayyan bir tilning grammatik, sintaktik qurilishiga bog‘liqliligi implitsitlikning grammatik aspektini tashkil qilsa, yashirin ifodalangan ma’noning stilistik, pragmatik, kognitiv aspektlarda qiyoslab o‘rganilishini, uning til va nutq jarayonida qo‘llanilishini tadqiq qilishni taqozo qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent:Ma’naviyat, 2013.–320 b.
2. Odilova G.K. Glyuttonik diskurs asoslari // Mumtoz So‘z. –Toshkent, 2020.- 5-10 b.
3. Quronov D.X., Habibullayeva F.K. “O‘tkan kunlar” tarjimasini: tahlil va tavsiyalar // Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal - Jahon adabiyoti. – 2018. – 171 b.
4. Raupova L.R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2012. – 220 b.